

“Boburnoma” – Boburning yuksak merosi

“Boburnoma” muallifdagi keng qamrovli bilim zahirasi o‘zining butun tajassumini topdi. Natijada qomusiy asar – “Boburnoma” vujudga keldi. Ushbu javohir xazinasi paydo bo‘lgan zamonidayoq, o‘zi va muallifiga beqiyos shuhrat keltirgan ediki, bu an`ana hozirga qadar davom etmoqda. “Boburnoma” va uning muallifi bu sha`nu shavkatga to‘la sazovor. Chunki “Boburnoma” badiiy, tarixiy, yodnoma asar sifatida adabiyotshunos va tarixchi, tilshunos va urfshunos, tabiyot va jug‘rofiya sohasi, shuningdek, yana bir qator mutaxassislariga qimmatli ma`lumotlar bera oluvchi bebaho ganjinadir. Shuning uchun ham bu asar turli davrlarga yashab, turfa tillarda so‘zlashgan sharqshunoslar diqqatini jalb etdi, dunyo kengliklarida aks sado berib keldi.

Umuman, Bobur terminologiyaga nisbatan ajoyib ish ko‘rgan. U har bir tilni hurmat qilgan, til boyliklaridan unumli foydalangan, forscha, afg‘oncha, hindcha terminlarini bir-biriga taqqoslangan va ularga izoh ham bergan

XVI asr boshlari Boburnomada joy nomlari o‘sha davrdagi holatida va transkripsiyada berilgan. Bu nomlarning ko‘pchiligi ba`zi fonetik o‘zgarishlar bilan shu kungacha mavjud. Ba`zilari unutilib ketgan, yangi nomlangan yoki butunlay ishlatilmay qolgan. Kitobda bir qancha nomlarning etimologiyasi ham tushuntiriladi, ayrim nomlarning turli variantlari beriladi. O‘zbekiston nomlarining ba`zilari ayni bir vaqtda tojikcha hamda o‘zbekcha ishlarilishi xalqimizning shu ikki tilda bemalol gaplashadiganidan dalolat beradi.

Farg‘ona vodiysining janubi — sharqidagi tog‘larni ya’ni hozirgi Olay tizmasi tog‘larini Bobur Andijon tog‘lari deb nomlaydi. Shimoldagi tog‘larni esa Yettikent tog‘lari deb ataydi. Yuqoridagi tog‘larning narigi tomonida haqiqatan ham yettita taniqli qishloq va yetti katta daryo bo‘lgan.

Yuqoridagi manzilgoh Uchqo‘rg‘on qishlog‘i, negaki Farg‘ona vodiysida Norin suvi ya’ni Sayxunning katta irmog‘ining eng tor kisig‘i ayni shu yerda.

“Boburnoma” o‘z muallifi adabiy-tanqidiy harashlarini o‘rganishda bebaho dalillar bera oladi. Shuningdek, unda o‘nlab fors-tojik, o‘zbek tilida hamda har ikki tilda ijod qilib, o‘lmas asarlar yaratib qoldirgan shoirlar haqida g‘oyat aniq

va zarur ma`lumotlarni keltirgan. Masalaning bu jihati “Boburnoma”ning o‘zbek va tojik adabiyotshunosligi uchun XV - XVI asr birinchi yarmi adabiyoti tarixini o‘rganishda muhim manba sifatidagi qimmatini oshiradi. Ikkinchidan, bir qavm, bir qardosh maqomidagi o‘zbek va tojik xalqlari adabiy birodarligi nurli sahifalari sifatida xizmat qiladi.

Ushbu asar tarixiy asarlar bilan bir qatorda tura oladi. Bundan tashqari “Boburnoma”da juda ko‘plab tarixiy shaxslar, adabiyotimizning yirik namayondalari, davlat arboblari, shoh va shoirlarning hayoti, ijodiy faoliyati, turmush tarzi, kelib chiqishi, shajarasi, o‘zining ilmiy-ijodiy faoliyati kabi qimmatli ma`lumotlar keltirilgan. Shuning uchun ham Boburning ilmiy-falsafiy asarlarini o‘rganinish maqsadga muvofiqdir.

Bahriddinova B.